

Intellektual mulk huquqining fuqarolik huquqining nomoddiy obyekt sifatida o'ziga xos jihatlari

Arslonqulova Aziza O'tkir qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti  
Xalqaro huquq va inson huquqlar kafedrası o'qituvchi -yordamchisi  
[azizsarslanovs@gmail.com](mailto:azizsarslanovs@gmail.com)

Intellektual mulk ijodiy faoliyatsiz fuqarolik huquqining sohasi sifatida, umuman, huquq sohasi sifatida mavjud bo'lmaydi. Intellektual mulk (IP) inson intellektining nomoddiy ixtirosidan iborat bo'lgan mulk shaklidir. Intellektual mulkning bir qator ko'rinishlari mavjud bo'lib, ayrim intellektual mulk shakllari boshqa intellektual mulk shakllariga nisbatan ko'proq insonlarga ma'lum. Inson ijodiy faoliyati juda ko'p o'ziga xosliklarga ega. Tibbiy olimlar, ruxshunoslar, fiziologlar tomonidan bu faoliyatning har doim unikal ekanligi ta'kidlanadi. Ijodkorlik bu o'ziga xos salohiyat, qobiliyat, layoqat hisoblanadi. Kishi o'z ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishi, uni qo'llay olishi, samarali natijalarga erishishi mumkin. Insonning ijodiy salohiyati, avvalo, uning faoliyati natijalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Shu sababli ham huquq ijodkor insonga nisbatan, ijodiy faoliyatga nisbatan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda alohida o'ziga xos obyekt sifatida yondashadi.

Fuqarolik huquqi va intellektual mulkning himoyasini quyidagicha solishtirish mumkin. Fuqarolik huquqi shaxslar va alohida yuridik shaxslar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishga qaratilgan. Intellektual mulk huquqi fuqarolik huquqining bir sohasi sifatida intellektual mulk huquqi subyektlarining huqulari va muhofazasi bilan shug'ullanadi. Bu huquqlar intellektual mulk huquqi egalariga o'zlariga tegishli bo'lgan ixtirolarga va shunday huquqlar doirasiga egalik qilish, o'z huquqlarining himoyasini ta'minlash va muhofaza qilish imkoniyatini beradi.

Intellektual mulk huquqi sohasida fuqarolik huquqining roli adolatli raqobatni ta'minlash va *intellektual mulknini yaratish va egalik qilishdan olinadigan iqtisodiy manfaatlarni* himoya qilishdan iborat.

Alohida ahamiyat qaratilishi lozim bo'lgan jihat ham mavjudki, intellektual mulk huquqi asosan hududiylik xususiyatiga ega. Xalqaro shartnomalar va kelishuvlar natijasida intellektual mulkning xalqaro tabiatini vujudga keltirish mumkin. Fuqarolik huquqi esa, fuqarolik qonunchiligida huquqbuzarliklarni himoya qilish choralari ko'zda tutilgan, masalan, ko'rsatmalar (buzilishni to'xtatish) va zararni qoplash (moliyaviy yo'qotishlarni qoplash) kabi uslublar bilan intellektual mulkning ham himoyasini ta'minlaydi.

Mamlakatdagi har qanday intellektual mulk tizimi uchta ustunga tayanishi kerak:

- tegishli sohadagi huquqlarni aniq belgilab beruvchi tegishli qonun hujjatlari;
- huquqlarni boshqarish uchun infratuzilmalar, masalan, patent idoralari yoki mualliflik huquqini jamoaviy boshqaruv tashkilotlari
- samarali ijro mexanizmlari<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasida Fuqarolik kodeksining IV bo'limi intellektual mulk munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan, shuningdek, mamlakatimizda intellektual mulk obyektlarining o'ziga xos jihatlarni tartibga solishga qaratilgan alohida qonunlar, ixtirolar, foydali modellar, sanoat na'munlari to'g'risidagi qonun, mualliflik va turdosh huquqlar to'g'risidagi qonun, tovar belgilari, xizmat ko'rstish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risidagi qonun, seleksiya yutuqlari to'g'risidagi qonun, geografik ko'rsatkichlar to'g'risidagi qonun, integral mikrosxema topologiyalari to'g'risidagi bir qator qonun va qonun

<sup>1</sup> WIPO National Workshop for Judges: The role of the judiciary and public prosecution in the enforcement of intellectual property Rights. Mr. Henry Olsen, Judge at the Court of Appeal, and Special Government Adviser, Ministry of Justice, Stockholm. 2004.

osti hujjatlari mavjud. Ushbu alohida qonunlar intellektual mulkning alohida obyektlari bo'yicha ular bilan bog'liq bo'lgan huquqiy munosabatlarni atroflicha tartibga solishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi 1031-moddaga binoan intellektual mulk obyektlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. Intellektual faoliyat natijalari:

fan, adabiyot va san'at asarlari;

jrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotlarning ko'rsatuvlari yoki eshittirishlari;

elektron hisoblash mashinalari (bundan buyon matnda EHM deb yuritiladi) uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari;

ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari;

seleksiya yutuqlari;

oshkor etilmagan axborot, shu jumladan ishlab chiqarish sirlari (nou-xau);

2) fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar:

firma nomlari;

tovar belgilari (xizmat ko'rsatish belgilari);

geografik ko'rsatkichlar;

3) ushbu Kodeksda yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollarda intellektual faoliyatning boshqa natijalari hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar.

Intellektual mulkning obyekti hoisoblangan ushbu vositalarning har biri jismoniy mavjudlik xususiyatiga ega emas va faqat ularga mulkiy egalik qilish uchun ularning mavjudligining o'zi asosiy ahamiyat kasb etmaydi

Intellektual mulk huquqi obyektlariga bo'lgan huquqlar ham xuddi fuqarolik huquqining boshqa obyektlari singari boshqa shaxslarga o'tkazilishiga yo'l qo'yiladi.

Intellektual mulk obyektiga nisbatan mutlaq huquqlar egasiga tegishli mulkiy huquqlar, agar ushbu Kodeksda yoki boshqa qonunda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, huquq egasi tomonidan shartnoma bo'yicha boshqa shaxsga to'liq yoki qisman o'tkazilishi mumkin, shuningdek bu mutlaq huquqlar meros bo'lib va yuridik shaxs — huquq egasi qayta tashkil etilganda huquqiy vorislik tartibida o'tadi.

Mulkiy huquqlarning shartnoma bo'yicha o'tkazilishi yoxud ularning universal huquqiy vorislik tartibida o'tishi mualliflik huquqining va boshqa begonalashtirilmaydigan hamda o'zgaga o'tkazilmaydigan mutlaq huquqlarning o'tkazilishiga yoki cheklanishiga sabab bo'lmaydi. Bunday huquqlarning o'tkazilishi yoki cheklanishi to'g'risidagi shartnoma shartlari o'z-o'zidan haqiqiy emas hisoblanadi.

Shartnoma bo'yicha o'tkaziladigan mutlaq huquqlar unda aniqlab qo'yilishi lozim. Shartnomada boshqa shaxsga o'tkaziladigan huquq sifatida ko'rsatilmagan huquqlar, agar boshqacha hol isbotlanmagan bo'lsa, o'tkazilmagan deb hisoblanadi.

Mutlaq huquqni uning amal qilish davrida cheklangan vaqtga boshqa shaxsga berishni nazarda tutuvchi shartnomaga nisbatan litsenziya shartnomasi to'g'risidagi qoidalar qo'llaniladi<sup>2</sup>.

Fuqarolik qonunchiligi intellektual mulk egasiga mutlaq huquqlarni beradi. Bu ularning yaratilishidan qanday foydalanilishini, nusxalanishini yoki tarqatilishini nazorat qilish imkonini beradi. Eksklyuziv huquqlarga misol sifatida ixtirolarga patentlar, ijodiy ishlarga mualliflik huquqi va tovar belgilari kiradi.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi . 1034-modda

Fuqarolik huquqi orqali intellektual mulkda huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish ham mumkin. Fuqarolik huquqiga binoan, intellektual mulk huquqlarini shartnomalar, meros yoki huquqiy vorislik orqali to'liq yoki qisman o'tkazishga imkon yaratiladi. Bu intellektual mulk huquqi egalarga intellektual mulkni litsenziyalash yoki uni butunlay sotish imkonini beradi.

Ammo, buning o'zi mamlakatimizda intellektual mulk fuqarolik huquqining obyekt sifatida o'z doktrinasiga ega degan g'oyani ilgari surishga asos bo'la olmaydi. Garchi fuqarolik huquqining kichik sohalari sifatida e'tirof etilgan mulk huquqi o'zining mafkuraviy, siyosiy asoslariga ega va binobarin muayyan doktrinaga tayanishi hammaga ayon haqiqat bo'lsa ham, intellektual mulk to'g'risida bunday g'oyani ilgari surish isbot talab qiladigan mulohaza hisoblanadi. Intellektual mulk sohasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va ularni huquqiy ta'minlash jarayonida intellektual mulk bilan bog'liq bo'lgan masalalar ham keng ko'lamli ravishda o'z ifodasini topib bormoqda. Zero, intellektual mulk huquqi ilm-fanning negizi hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga bir qator takliflar kiritish ham mumkin bo'ladi.

Ma'lumki O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi 44-moddaga binoan, yuridik shaxslar davlat reeystridan o'tkazilgandan so'ng vujudga keladi. Yuridik shaxsni ro'yxatdan o'tkazishda yuridik shaxsning ustav fondini ko'rsatish lozim. Davlat xizmatlari markazidan ro'yxatdan o'tkazilayotganda ustav fondini faqat pul hisobida qo'yish mumkin bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi "Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida" gi qonun 15-moddada "pul, qimmatli qog'ozlar, o'zga ashyolar yoki mulkiy huquqlar yoki pul bahosiga ega bo'lgan boshqa shaxsga o'tkaziladigan o'zga huquqlar jamiyatning ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo'shiladigan hissalar bo'lishi mumkin" ligi yozilgan. Ammo aniq intellektual mulk obyektlari ifodalanmagan. Intellektual mulkdan ustav fondiga hissa sifatida foydalanish mexanizmida ***baholash tashkilotlari tomonidan intellektual mulk obyektining bozor qiymatini aniqlagan holda*** intellektual mulk huquqlarining obyektlari yuridik shaxslarning ustav kapitalida ko'rsatilgan holda yuridik shaxs tashkil etish imkoniyati yo'lga qo'yilishi lozim. "Baholash tashkilotlarining faoliyati to'g'risida"gi qonun 5-moddaga binoan, intellektual mulk huquqi obyektlari ham baholash obyekt hisoblanadi. Intellektual mulk obyektini ustav fondiga kiritilayotganda intellektual mulk obyektining tavsilotlari, uni baholash jarayoni va asoslarini aks ettiruvchi batafsil hisobot tayyorlanishi kerak.

## References:

1. Intellektual mulk. Darslik. Toshkent davlat yuridik universiteti mualliflar jamoasi. TDYU-2020.
2. Xorijiy mamlakatlar intellektual mulk huquqi. O'quv qo'llanma. I.Rustambekov, A.Nuridullayev. Toshkent-2011
3. Intellektual mulk huquqi. O'quv qo'llanma. N.Imomov, B.Axmadjonov. Toshkent - 2010.
4. Intellectual property: patents, copyright, trade marks and allied rights. W.Cornish, L.Llewelyn and T.Aplin. Seventh edition. 2021
5. Safoyeva S.M. Intellektual mulk obyektlaridan tijorat muomalasida foydalanishning huquqiy shakllari. O'quv qo'llanma\ T.: 2009 43-b
6. Intellectual property law. P.Tollemaans & Holyoak. Ninth edition. Oxford university press-2019. p. 768.
7. Intellectual property law and human rights. Poul Torremans. WaltersKluwer-2020. P. 869.
8. S. Ricketson, The Law of Intellectual Property. Law Book, Sydney, 2014 p. 599.